Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

XIVA VA QO‘QON XONLIKLARI HAMDA BUXORO AMIRLIGIDA HARBIY-DIPLOMATIK MUNOSABATLAR: MINTAQAVIY RAQOBAT, TASHQI TAHDIDLAR VA TRANSFORMATSIYA

Xurshed Toshqulovich Mirzayev*
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ xurshedmirzayev3@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Xiva va Qo‘qon xonliklari hamda Buxoro amirligida harbiy-diplomatik munosabatlarning xususiyatlari va tarixiy transformatsiyasi tahlil qilingan. Ushbu davlatlarning mintaqaviy raqobat va tashqi harbiy-siyosiy bosim sharoitida diplomatik vositalardan foydalanish amaliyoti ochib berilgan. Shuningdek, ichki siyosiy ziddiyatlar, davlatlararo raqobat va harbiy-texnologik imkoniyatlarning cheklanganligi mahalliy davlatlarning tashqi tahdidlarga qarshi samarali hamkorlik qilish imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatgani asoslangan.

Kalit so‘zlar

harbiy diplomatiya, Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi, Sin imperiyasi, Usmonli imperiyasi, Buyuk o‘yin, Yoqubbek, harbiy-siyosiy munosabatlar, tashqi siyosat.

DOI: 10.5281/zenodo.23281788

KIRISH

XVIII asr oxiri – XIX asr davomida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan harbiy-siyosiy jarayonlar Xiva va Qo‘qon xonliklari hamda Buxoro amirligining tashqi siyosiy faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mintaqadagi mamlakatlararo raqobat bilan bir vaqtda Rossiya imperiyasining janub tomon harbiy-siyosiy ekspansiyasi, Britaniya imperiyasining strategik manfaatlari, shuningdek Sin va Usmonli imperiyalari bilan munosabatlar mahalliy davlatlar oldiga yangi tashqi siyosiy va xavfsizlik vazifalarini qo‘ydi.

Ushbu sharoitda harbiy diplomatik muzokaralarni olib borish davlat xavfsizligini ta’minlashning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Xiva xonligining Rossiya imperiyasi bilan muzokaralari, Buxoro amirligining buyuk imperiyalar (Rossiya, Britaniya) missiyalariga munosabati, Qo‘qon xonligining Sin imperiyasi bilan diplomatik kelishuvlarga erishganligi hamda tashqi harbiy-texnik imkoniyatlardan foydalanishga bo‘lgan harakati mazkur jarayonning turli ko‘rinishlarini o‘zida ifoda etadi.

Shuningdek, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi armiyasining harbiy-texnologik va tashkiliy-shtat tuzilmasi jihatidan ustunligi, Markaziy Osiyodagi davlatlar ichki ziddiyatlari hamda barqaror mintaqaviy xavfsizlik mexanizmlarining shakllanmaganligi mahalliy davlatlarning tashqi bosimga qarshi imkoniyatlarini cheklagan.

Mazkur **maqolaning maqsadi** Xiva va Qo‘qon xonliklari hamda Buxoro amirligi misolida harbiy-diplomatik munosabatlarning asosiy xususiyatlari hamda harbiy-siyosiy vaziyatga ta’sirini ochib berishdan iborat.

XVI–XIX asrlarda hozirgi O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida harbiy diplomatiyaning miqyosi kamayib, transmintaqaviy darajadan lokal-mudofaaviy darajaga

tushib qoldi. Mazkur mamlakatlarning tashqi siyosati asosan o‘zaro raqobat, chegara nizolari va ichki barqarorlikni asrash bilan cheklanib qoldi.

Xiva xonligining Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari doimiy harbiy keskinliklar fonida amalga oshirildi.

1839-1840 yillarda rus generali V.A. Perovskiy tomonidan Xivaga amalga oshirgan qurolli ekspeditsiya muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

Xiva xoni Alloqulixon ikki davlat o‘rtasidagi keskin vaziyatni yumshatish uchun 1840 yilda asirga olingan 416 nafar rus harbiysini ozod qilgan, 1842 yilda esa Rossiya bilan Danilevskiy shartnomasini imzoladi. Ushbu hujjatda Rossiyaga qarshi dushmanlik harakatlarini amalga oshirmaslik, rus fuqarolarini asirlikda saqlamaslik, savdo va xavfsizlik masalalari kabi majburiyatlar belgilangan [1, B. 122–131].

Xiva **Eron bilan ham harbiy diplomatik munosabatlarni olib borgan**. Xurosonga turkman qabilalarining hujumi va eronlik asirlarning Xiva bozorlariga namoyishkorona olib kelinishi ikki tomonlama munosabatlarda uzluksiz ziddiyat manbai bo‘lib qolgan. 1851 yilda Eron bosh vaziri Amir Kabir Rizoqulixon Hidoyat boshchiligidagi missiyani Xorazmga safarbar etib, turkmanlar muammosini tinch yo‘l bilan hal etish va asirlar masalasini muhokama qilishni maqsad qilgan. Ushbu missiya siyosiy muzokaralar bilan bir vaqtda Xorazmdagi vaziyat haqida ma’lumot yig‘ish vazifasini ham amalga oshirgan. Bu misollar esa Xiva tashqi munosabatlarida harbiy xavfsizlik, asirlar masalasi va diplomatik muzokaralar o‘zaro bog‘liq bo‘lganidan dalolat beradi [1, B. 128–131].

Xonlik armiyasining an’anaviy otliq qo‘shin tizimida qolib ketgani va boshqa davlatlar bilan keng ko‘lamli harbiy-texnik hamkorlikning yo‘qligi keyinchalik davlat mudofaa salohiyatining zaiflashuviga sabab bo‘ldi.

Buxoro amirligi mintaqadagi eng nufuzli siyosiy markazlardan biri bo‘lib, Eron, Usmonlilar, Rossiya va Afg‘oniston bilan turli darajada diplomatik aloqalarni olib borgan.

Amirlikda an’anaviy tuzilmaga ega qurolli kuchlar faoliyat yuritgan va harbiy islohotlar cheklangan darajada o‘tkazilgan.

XIX asrning birinchi yarmida amirlik Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyalari o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat – “Buyuk o‘yin” (The Great Game) ta’siri ostiga tushgan. Xususan, 1820 yilda Rossiya elchilari (Aleksandr Negri boshchiligida), 1832 yilda ingliz diplomatlari (Aleksandr Byorns rahbarligida), 1841–1842 yillarda esa Buyuk Britaniya harbiy ofitserlarining (Charlz Stoddart va Artur Konolli) Buxoroga tashrifi amirlikning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi [2, p. 115]. Rasmiy nuqtai nazardan mazkur tashriflar savdo va siyosiy munosabatlarni rivojlantirish uchun amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularning asosiy vazifalari mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatni tizimli tahlil qilishdan iborat bo‘lgan.

Amir Nasrullo davrida (1827–1860 yy.) amirlik armiyasida qisman islohotlar amalga oshirilgan. Xususan, 1837 yildan keyin muntazam sarboz qismlarini tashkil etishga kirishildi. Piyoda va artilleriya bo‘linmalarining vujudga keltirilishi an’anaviy qabilaviy harbiy tuzilmani qisman markazlashtirishga qaratilgan. Harbiy tayyorgarlikni kuchaytirish maqsadida xorij tajribasidan foydalanilib, Eron harbiy muhiti bilan bog‘liq Abdusamad Tabriziy kabi mutaxassislar jalb etildi. Bu misol Buxoro amirligi rahbariyati tashqi harbiy tahdidlarga faqat diplomatik vositalar bilan emas, balki ichki harbiy modernizatsiya orqali ham javob berishga uringanini isbotlaydi [3, S. 51-57]. Biroq, tizimli harbiy-diplomatik strategiyaning mavjud emasligi Rossiya bilan qurolli to‘qnashuvlarning oldini olish imkonini bermadi.

Qo‘qon xonligi Rossiya tahdidiga qarshi turish uchun Islom dunyosining boshqa davlatlari bilan harbiy-texnik ittifoq tuzishga urindi. Xon Muhammad Alixon (1822–1842 yy.) o‘z armiyasini isloh qilish va o‘qotar qurollar sotib olish maqsadida Usmonlilar imperiyasi (Turkiya) bilan harbiy-diplomatik muzokaralar olib borgan [4, S. 118]. Ammo masofaning uzoqligi va Istanbulning Rossiya bilan munosabatlarini yomonlashtirishni xohlamaganligi sababli bu so‘rovlar rad etilgan.

Shuningdek, Qo‘qon xonligi Sin imperiyasi (Xitoy) bilan 1826-1830 yillardagi qurolli mojarolardan keyin muvaffaqiyatli harbiy diplomatiya yuritgan. Xususan, 1831 yilda ikki davlat o‘rtasida Pekin shartnomasi imzolangan bo‘lib, xonlik Sharqiy Turkistonda (Qashg‘ar, Yarkent) o‘z bojxona vakolatxonalarini ochish hamda iqtisodiy imtiyozlarni olishga muvaffaq bo‘lgan [5, S. 210].

Qo‘qon xonligida armiya siyosiy boshqaruv bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mahalliy beklar yordamida boshqarilgan.

Qo‘qon harbiy-siyosiy muhitida shakllangan harbiy elitaning tashqi diplomatik amaliyotiga doir alohida misol sifatida Yoqubbek faoliyatini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xonlik sarkardasi **Muhammad Yoqubbek** (Ataliq g‘oziy) 1860-1870 yillarda Shinjonda mustaqil davlat tuzib, Britaniya, Rossiya va Usmonlilar bilan parallel ravishda harbiy-diplomatik shartnomalar tuzishga erishgan.

Jumladan, diplomatik munosabatlar tufayli Istanbuldan Yoqubbek armiyasini modernizatsiya qilish uchun harbiy ofitserlar va artilleriya sohasi mutaxassislari safarbar etilgan [6, S. 223].

1873 yilda Hindiston (Buyuk Britaniya imperiyasi tarkibida bo‘lgan) vitse-qiroli lord Nortbruk ser Tomas Duglas Forsayt rahbarligi ostida Qashg‘arga rasmiy missiya jo‘natgan. Missiyaga ofitserlar, geograflar va tibbiyot xodimlarining jalb etilishi, uning harbiy-strategik ma’lumotlarni yig‘ish vazifasini ham bajarganligini ko‘rsatadi. 1874 yil 2 fevral kuni Buyuk Britaniya va Yoqubbek o‘rtasida Qashg‘ar-Hindiston savdo yo‘llarini ochish, savdogarlar xavfsizligini ta’minlash va diplomatik munosabatlarni rasmiylashtirish borasida shartnoma tuzilgan. Ammo, bu shartnoma Buyuk Britaniya tomonidan Yoqubbek davlatiga harbiy himoya kafolatini beraolmagan [6, P. 271]. Ushbu shartnoma Yoqubbek davlatining xalqaro huquq sub’ekti sifatida qisman tan olinishini anglatgan.

Shuningdek, 1876 yilda Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman Farg‘ona viloyati bilan Yoqubbek hududlari o‘rtasidagi chegara masalasini muhokama etish, rus savdogarlari manfaatlarini himoya qilish va Sharqiy Turkistondagi harbiy-siyosiy vaziyatni o‘rganish maqsadida kapitan A.N. Kuropatkinni Qashg‘arga yuborgan [5, S. 304]. Rossiya imperiyasi Yoqubbek davlatini strategik harbiy ittifoqchi sifatida emas, balki Britaniya va Sin imperiyasi bilan munosabatlarda vaqtinchalik diplomatik omil sifatida baholagan. Shuning uchun 1876–1877 yillarda Xitoy qo‘shinlari Sharqiy Turkistonni qayta egallash harbiy harakatlarini boshlaganda, Rossiya tomoni Yoqubbekka harbiy yordam bermagan.

Muhammad Yoqubbekning o‘sha zamon buyuk imperiyalari – Usmonlilar, Buyuk Britaniya va Rossiya bilan amalga oshirgan diplomatik munosabatlari o‘zbek harbiy elitasining xalqaro maydonda mustaqil harbiy-diplomatik sub’ekt sifatida harakat qila olganini ko‘rsatadi.

Turkistonning Chor Rossiyasi tomonidan egallab olinishi natijasida mahalliy davlatlarning mustaqil harbiy va diplomatik faoliyatni amalga oshirishi butunlay tugatildi. 1867 yilda markazi Toshkent shahrida joylashgan Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi bilan mintaqada yangi harbiy-ma’muriy boshqaruv tizimi joriy etildi.

Birinchi general-gubernator K.P. fon Kaufman harbiy boshqaruv va diplomatik vakolatlarni uyg‘unlashtirgan holda “yarim mustaqil hukmdor” sifatida ish yuritgan. Uning harbiy bosimi va muzokaralari natijasida imzolangan 1868 yilgi Samarqand (Buxoro bilan) va 1873 yilgi Gandimiyon (Xiva bilan) shartnomalari Buxoro amirligi va Xiva xonligining mustaqil tashqi siyosat yuritish, xorijiy davlatlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy-diplomatik aloqalar o‘rnatish huquqini bekor qilgan edi [7, S. 143].

Biroq, bu davrda Toshkent shahri Rossiya imperiyasining Osiyodagi eng yirik harbiy-operativ va diplomatik markaziga aylandi. Turkiston harbiy okrugi qo‘mondoni sifatida general-gubernator Rossiya imperiyasi nomidan Xitoy (Sin), Eron va Afg‘oniston bilan chegara muammolari va harbiy-siyosiy masalalar yuzasidan bevosita muzokaralar olib borish huquqiga ega edi [7, S. 148]. Buning natijasida Toshkent Yevroosiyo geosiyosatida qarorlar qabul qilinadigan mintaqaviy strategik markaz sifatida shakllandi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Xiva, Qo‘qon xonliklari va Buxoro amirligida harbiy diplomatiya tashqi tahdidlarni cheklash, savdo yo‘llari va siyosiy manfaatlarni himoya qilish, qo‘shni davlatlar bilan kuchlar muvozanatini saqlash hamda tashqi siyosiy manyovr imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida qo‘llanilgan.

XIX asrda Rossiya va Britaniya imperiyalari tomonidan Markaziy Osiyo davlatlarini egallash uchun amalga oshirilgan geosiyosiy raqobat mahalliy davlatlarning tashqi siyosiy muhitini murakkablashtirdi. Xiva–Rossiya, Buxoro–Buyuk Britaniya va Qo‘qon–Sin munosabatlari mahalliy hukmdorlarning harbiy-diplomatik

imkoniyatlardan foydalanishga harakat qilganidan dalolat beradi. Qo‘qon xonligi harbiy-siyosiy muhitidan yetishib chiqqan Yoqubbekning Rossiya, Britaniya va Usmonli imperiyasi bilan harbiy-siyosiy aloqalari esa XIX asr ikkinchi yarmida diplomatiya, savdo va harbiy-texnik hamkorlikning o‘zaro bog‘liqligini namoyon etuvchi tarixiy misol sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аллаева Н. Дипломатия Хивинского ханства и торговые связи (XVI–XIX вв.). – Ташкент: Фан, 2023.

2. Levi S.C. The Rise and Fall of Khoqand: Central Asia in the Global Age. – Pittsburgh: University of Pittsburgh Press, 2017.

3. Шарипов Г.З. Штрихи к истории военного дела Бухарского эмирата периода правления эмира Насруллы (1826–1860 гг.) // Номаи донишгоҳ. – 2020. – № 1 (62).

4. Ҳидоятов Г.А. Из истории англо-русских отношений в Средней Азии в конце XIX века. – Ташкент: Фан, 1969.

5. Куропаткин А.Н. Кашгария: историко-географический очерк страны, её военная сила, промышленность и торговля. – Санкт-Петербург, 1879.

6. Forsyth T.D. Report of a Mission to Yarkund in 1873, under Command of Sir T.D. Forsyth. – Calcutta: Foreign Department Press, 1875.

7. Глущенко Е.И. Россия в Средней Азии. Завоевание и преобразование. – Москва: Центрполиграф, 2010.